



“Hamkorbank” ATBda “FIFA World Cup 2026™ Jahon chempionatiga yo‘llanmani Visa bilan yutib oling” yutuqli aksiyasini joriy etish tartibi

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu tartib “Hamkorbank” ATB tomonidan ishlab chiqilgan **“FIFA World Cup 2026™ Jahon chempionatiga yo‘llanmani Visa bilan yutib oling”** yutuqli aksiyasini joriy etish maqsadida aksiyani o‘tkazilish shartlarini, g‘oliblarni aniqlash hamda yutuqli sovrinni g‘oliblarga topshirish tartibini belgilaydi.

1.2. Aksiya tavakkalchilik asosida tashkil etilgan lotoreya o‘yini emas, aksiya ishtirokchilari mol-mulkini tavakkalchiligiga olib kelmaydi.

1.3. Aksiya ishtirokchisi bo‘lish majburiy emas.

1.4. Aksiya 2026-yil 02-martdan 2026-yil 03-mayga qadar o‘tkaziladi. Aksiyada ishtirok etish shartlari, aksiyani o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash tartibi bankning hamkorbank.uz sayti orqali e‘lon qilib boriladi.

1.5. “Hamkorbank” ATB mazkur tartib-qoidalarga o‘zgartirish kiritish yoki aksiyani muddatidan oldin to‘xtatish huquqiga ega.

2. Aksiya o‘tkazish muddati va manzili

2.1. Aksiyani o‘tkazish hududi: O‘zbekiston Respublikasi.

2.2. Aksiya o‘tkazish sanasi: 2026-yil 02-martdan 2026-yil 03-maygacha.

3. Aksiyada ishtirok etish shartlari

3.1. Aksiyada 2026-yil 02-martdan 2026-yil 03-maygacha Hamkorbank Visa so‘m kartasini rasmiylashtirib, aksiya davomida karta orqali jami 1 (Bir) mln so‘m miqdoridan kam bo‘lmagan to‘lovlarni (faqat to‘lovlar, pul o‘tkazish va kartani to‘ldirish amaliyotlari kirmaydi) amalga oshirgan mijozlar ishtirok etadi.

3.2. Har bir ishtirokchi aksiyada bir nechta ishtirokchi sifatida qatnashish imkoniyatiga ega (3.3.-bandga qarang).

3.3. Xaridlar uchun sarflangan har 1 000 000 (bir million) so‘m uchun ishtirokchiga yutuqli o‘yinda ishtirok etish uchun 1 (bitta) raqam beriladi. Masalan: aksiya davomida 3 546 000 so‘m sarflagan mijoz 3 ta ishtirokchi raqamini oladi

3.4. Aksiyada 1 dona yutuq – futbol bo'yicha Jahon chempionati **FIFA World Cup 2026™** da O'zbekiston o'yinida ishtirok etish uchun 2 kishilik yo'llanma o'ynaladi.

3.5. Ushbu yutuqli aksiyada 18 yosh va undan katta yoshdagi O'zbekiston Respublikasi rezident fuqarolari qatnashishi mumkin.

3.6. Aksiyada "Hamkorbank" ATBning barcha xodimlari va norezidentlar ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

4. Ishtirokchilarning huquqlari va majburiyatlari

4.1. Aksiyada ixtiyoriy ravishda qatnashish mumkin.

4.2. Aksiya ishtirokchilari Hamkorbank Visa so'm kartasini rasmiylashtirib, aksiya davomida karta orqali 1 (Bir) mln so'm miqdoridan kam bo'lmagan to'lovlarni (faqat to'lovlar, pul o'tkazish va kartani to'ldirish amaliyotlari kirmaydi) amalga oshirgan bo'lishlari shart.

4.3. Aksiya natijalariga ko'ra g'olib bo'lgan ishtirokchi tegishli tarzda yutuqni olishi mumkin, 3.4 badda ko'rsatilgan tartibda.

4.4. Aksiyada g'olib bo'lgan shaxslar o'zlarining ismi-shariflari va suratlarini reklama qilish uchun rozilik beradilar.

4.5. Aksiya g'olibi sovg'alarni olib ketish xarajatlarini o'z hisobidan amalga oshiradi.

4.6. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 52-bob talablariga asosan yutib olingan sovg'a uchun soliq va boshqa majburiy to'lovlar ishtirokchi tomonidan to'lanadi.

5. Aksiya yutuq fondi

5.1. **"FIFA World Cup 2026™ Jahon chempionatiga yo'llanmani Visa bilan yutib oling"** aksiyasining yutuq fondi ushbu aksiya tashkilotchisi VISA va "Hamkorbank" ATB tomonidan qoplanadi.

5.2. Aksiya doirasida quyidagi sovrin taqdim etiladi:

- Jahon chempionati FIFA 2026da ishtirok etish uchun 2 kishiga yo'llanma.

G'olibning yutuq paketi:

- O'zbekiston terma jamoasi ishtirokidagi Jahon chempionati FIFA World Cup 2026™ 1 o'yiniga 2 ta chipta

- O'zbekiston terma jamoasi ishtirokidagi 2026-yilgi Jahon chempionati FIFA World Cup 2026™ o'tkaziladigan joygacha va O'zbekistonga qaytish uchun 2 ta ekonom-klass aviachipta.

- 4 kecha tunash (4 yulduzli mehmonxona).

- 600 AQSH dollari miqdoridagi oldindan to'langan Visa kartasi.

- Aeroportdan/aeroportga (avtobusga) yetkazish.
- Mehmonxonada har kungi nonushta va yengil tamaddilar.
- Rejalashtirilgan tadbirlargacha/dan transport (avtobus).
- Ko'ngilochar yoki madaniy tadbir.
- Visa jamoasi tomonidan qo'llab-quvvatlash, shu jumladan tibbiy va xavfsizlik yordami.

5.3. Yutuq g'olibga, agar u Futbol bo'yicha Jahon chempionati o'tkazilayotgan davlatga kirish vizasini olsa, davlatga kirish vizasini olgan kundan so'ng 10 (O'n) bank ish kunida taqdim etiladi.

5.5. G'olib yaroqsiz holdagi yutuq taqdim etilmaydi.

5.6. O'zbekiston Respublikasi "Soliq kodeksi"ga asosan yutib olingan sovg'a uchun barcha soliq va majburiy to'lovlar aksiya g'oliblari tomonidan to'lanadi.

6. Aksiya reklamasi

6.1. **"FIFA World Cup 2026™ Jahon chempionatiga yo'llanmani yutib oling"** aksiyasi bankning barcha axborot resurslarida (veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar, flayerlar va boshqalar) uzluksiz reklama qilinadi.

6.2. Aksiya reklama fondi 793 mln (Yetti yuz to'qson uch million) so'mni tashkil qiladi.

7. Aksiya g'oliblarini aniqlash va taqdirlash

7.1. Aksiya g'oliblarini aniqlash uchun maxsus komissiya tashkil etiladi. Komissiya tarkibi komissiya raisi va a'zolaridan iborat bo'ladi.

7.2. Aksiya g'olibini aniqlash maxsus komissiya ishtirokida amalga oshiriladi.

7.3. Aksiya shartlarini bajargan ishtirokchilar ro'yxati bank dasturidan olingan hisobotga asosan shakllantiriladi. Mijozlar ismi-shariflari random tartibida saralab olinadi va har bir ishtirokchiga alohida tartib raqam beriladi. Bunda bir ishtirokchiga kelgan o'tkazmalarning soniga qarab bir nechta tartib raqam berilishi mumkin.

7.4. Aksiya g'olibi random.org yoki shu kabi tasodifiy tanlash generatori orqali aniqlanadi.

7.5. Aksiya g'olibi aniqlash jarayoni ochiq va shaffof tarzda o'tkazilishini ta'minlash maqsadida bankning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida (Instagram, Telegram va b.) translyatsiya qilinadi.

7.6. Aksiyada asosiy bitta g'olib va 2 (Ikki) zaxira nomzod aniqlanadi.

7.7. Agar sovrin g'olibi sovrinni qabul qilmasa yoki unga viza berish rad etilsa, sovrin birinchi zaxira nomzodiga beriladi. Agar birinchi zaxira nomzodi ham sovrinni qabul qilmasa yoki unga viza berish rad etilsa, sovrin ikkinchi zaxira nomzodiga beriladi.

7.8. Agar ikkala zaxiradagi nomzod ham sovrinni qabul qilmasa yoki ularga viza berish rad etilsa, Komissiya qaroriga ko'ra boshqa g'oliblar aniqlanadi.

- 7.9. Aksiya g'olibi aniqlanganidan so'ng ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e'lon qilinadi.
- 7.10. Yutuq g'olibga, agar u Futbol bo'yicha Jahon chempionati FIFA World Cup 2026™ o'tkazilayotgan davlatga kirish vizasini olsa, davlatga kirish vizasini olgan kundan so'ng 10 (O'n) bank ish kunida taqdim etiladi.
- 7.11. "Hamkorbank" ATB yutuq g'olibi Futbol bo'yicha Jahon chempionati o'tkazilayotgan davlatga kirish vizasini olinishida ishtirok etmaydi va viza olish uchun javobgar emas.
- 7.12. Bank yutuqdan foydalanishning butun muddati davomida sovrin egasining sog'lig'iga (hayotiga), shuningdek uchinchi shaxslarning mol-mulkiga, sog'lig'iga yoki hayotiga yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar bo'lmaydi.
- 7.13. Bank va aksiya ishtirokchilari o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo'li bilan hal etiladi.
- 7.14. Muzokaralar orqali hal etilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida belgilangan tartibda Sud orqali hal etiladi.
- 7.15. Yutuqlar g'olibining o'ziga va ularning qonuniy vakillariga(notarial tasdiqlangan) ham taqdim etilishi mumkin.
- 7.16. Yutuq g'olibga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan taqdim etiladi.
- 7.17. G'olib yutuqni olish chog'ida o'zlarining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini taqdim qilib, daromad solig'ini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga olgan holda to'lovni amalga oshiradilar.

8. Yakuniy qoidalar

- 8.1. Bank fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda majburiyatlarini bajarish bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
- 8.2. Aksiya o'tkazish shart-qoidalarini bo'yicha batafsil ma'lumotni hamkorbank.uz sayti orqali yoki bankning Aloqa markazining 1256 qisqa raqamlarga murojaat qilish orqali olinishi mumkin.
- 8.3. Aksiyada ishtirok etuvchi mijozlar ushbu shart-qoidalarini qabul qilishlari lozim.